


MUALLIF USLUBI VA UNING TARJIMADA SAQLAB QOLISH MUAMMOSI

(A.L.Qozonchining “Rasulullohga nega ishonmadilar?” asari asosida)

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.7460695>

Quvonchbek JURAQULOV,
TDSHU 1- kurs magistranti,
Toshkent, O‘zbekiston.
Tel: +998939946461;

Email: juraqulovquvonchbek@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqola muallif uslubi va uning tarjimada saqlab qolish muammosiga bag‘ishlangan. Bu ishda tadqiqot obyekti sifatida Ahmat Lutfiy Qozonchining “Rasululloh (s.a.v)ga nega ishonmadilar?” asaridagi asar qahramonlarning jonli nutqining tarjimasi xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlari: *uslub, muallif uslubi, Firdavs Mirzo, jonli nutq, tarjima.*

Аннотация. *Данная статья посвящена авторскому стилю и проблеме его сохранения в переводе. В этой работе Ахмат Лутфий Казанчи «Почему они не верили в Расулулла (с.а.в)?» использовался в качестве объекта исследования.*

Ключевые слова: *стиль, авторский стиль, Фирдавс Мирзо, перевод.*

Abstract. *This article is devoted to the author's style and the problem of preserving it in translation. In this work, Ahmat Lutfiy Kazanchi's "Why did they not believe in Rasulullah (s.a.v)?" was used as a research object. The work in the work serves as a translation of the live speech of the characters.*

Key words: *style, author's style, Firdavs Mirzo, translation.*

KIRISH

Uslub arabcha so‘z bo‘lib usul, tartib, yo‘sin, shakl degan ma‘nolarni bildiradi. Adabiyotshunoslikda uslub har bir ijodkorning yozish usuli, bayon tarzi, tasvir manerasi mazmunida qo‘llaniladi.

Uslub tor va keng ma‘noda qo‘llaniladi. Tor ma‘noda uslub tasvirlash, bayon etish, so‘zlashuv usuli bo‘lsa, keng ma‘noda ijodkornig uslubi (A.Qahhor, A.L.Qozonchi), asar uslubi (“O‘tkan kunlar”, “O‘gay ona”), yozuvchilar uslubi (Jadidlar, marifatparvarlar), adabiyotning uslublari (sharq, g‘arb, o‘zbek, turk), davr uslublari (XI, XIX), oqimning uslublari (realism, romantizm) va boshqalar hisoblanadi. “Muallif uslubi deganda biror bir muallifning muayyan bir davrda yaratgan asarlarida doim uchrab

turadigan yoki uning butun ijodiga xos asosiy unsurlar majmuasi tushuniladi” [1,66].

Uslubga N. Shukurov shunday ta’rif beradi: “Uslub ijodkorning voqelikni o‘zicha idrok etishi, voqea-hodisalarni o‘ziga xos obrazlar va ifoda-tasvir vositalari bilan aks ettirishidir” [2,7]. Uslub faqatgina bulardan iborat bo‘lib qolmasdan, asar mavzusi, g‘oyasi, qanday ifoda qilinishi, qahramon xarakterlarini qanday tasvirlashi va shu kabi unsurlarning yaxlitligi muallif uslubining o‘ziga xosligidir.

Adabiyotda o‘z o‘rniga ega ijodkorlarning uslubi boshqa bir ijodkorning uslubi bilan bir xil bo‘lmaydi, chunki biror bir ijodkor bilan bir uslubda yozgan yoki nisbatan bir-biriga yaqin bo‘lsa ham, u asar va u ijodkor haqiqiy hisoblanmaydi. Barcha yozuvchi va shoirlarning uslubi bir-biridan farqlidir. A.Blok aytganidek, “Shoirlar o‘z ijodidagi mushtarakliklari uchun emas, balki bir-birilaridan farq qiluvchi xususiyatlari bilan qiziqarlidir.” [3,88].

Ahmat Lutfiy Qozonchi 1936-yil 1-avgustda Chorumda dunyoga kelgan. Islom tarixchisi va romanchisi sifatida tanilgan. 1991-yilda Islom tarixi bo‘yicha dotsent, 1999-yilda esa professor unvoni oladi. Adibning bir qancha asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Shular jumlasiga “O‘gay ona”, “Qaynona”, “So‘nggi to‘fon”, “Saodat asri qissalari”, “Hazrati Umar ibn Xattob”, “Abu Bakir Siddiq” va “Rasulullohga nega ishonmadilar?” kiradi.

Maqsad va vazifalar: Mazkur tadqiqot ishining maqsadi, muallif uslubi va uning o‘ziga xos xususiyatlari va A.L.Qozonchining asarlari vositasida muallif uslubining tarjimada saqlanib qolish muammosini ochib berishdir. Ishning vazifalari quyidagilar:

- A.L.Qozonchi uslubining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
- dialoglar vositasida jonli nutqning tarjimada berilishi;
- A.L.Qozonchi asarlarining o‘zbekcha tarjimasida muallif uslubi saqlanib qolganlik darajasini aniqlash.

Usullar: Muallif uslubini tarjimada saqlab qolishini aniqlashda A.L.Qozonchi asarining asl nusxasi va o‘zbekcha tarjimasini qiyoslash va tahlil qilish usulidan foydalanildi.

Tadqiqot manbasi: A.L.Qozonchining “Rasulullohga nega ishonmadilar?” asarining asli va o‘zbekcha tarjimasini hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti: Tadqiqotning obyekti sifatida A.L.Qozonchining “Rasulullohga nega ishonmadilar?” asaridagi muallif uslubiga xos bo‘lgan xususiyatlar: dialoglardagi jumla qurilishi, qahramonlar nutqi, maqol va iboralar qo‘llanilishi, ifoda shakli kabilarning tarjimada saqlanib qolganligini aniqlashdir.

Natija va mulohazalar: A.L.Qozonchi asosan diniy, tarixiy va ma’rifiy asarlar yozgan. “Peygamberimize neden inanmadilar?” (“Rasulullohga nega ishonmadilar?” Firdavs Mirzo tarjimasi) asari diniy-ma’rifiy asar hisoblanadi. Yozuvchi ko‘proq tarixiy asarlar yozgani va asarlarining ko‘pgina qismi diniy mavzuda bo‘lgani uchun tarixiy so‘zlardan keng foydalangan. Tarjimon yozuvchining asarini tarjima qilar ekan boshqa badiiy asarlar tarjimasiga qaraganda osonroq tarjima qilingan desak xato hisoblanmaydi, chunki so‘zma-so‘z tarjima usulida tarjima qila bo‘ladi. Bunga quyidagi gapni misol qilib olsa bo‘ladi: *Bunlardan ayri olarak Peygamberimizin miraç hadisesi de onlar için ayrı bir mucize teşkil etmişti* [4, b. 86].

Bundan tashqari Payg‘ambarimiz s.a.v.ning Mehrojga chiqishlari ham ular uchun yana bir mujiza bo‘lgan edi [100-b].

Muallif uslubiga xos bo‘lgan yana bir jihat bu qahramonlar nutqidir. Qahramonning ijtimoiy kelib chiqishi, ma’lumoti yoki qandaydir nuqsonlarini ko‘rsatib turuvchi jonli nutq tarjimada ham bilinib turishi kerak. Asliyat matnda asar qahramonining tili ravon bo‘lmasa yoki jumlaning boshqacha quradigan bo‘lsa, tarjimada ham uni ko‘rsatish kerak.

- *Nereye böyle ey Ümmü Seleme?..*
- *Medine’ye gidiyorum.*
- *Hani kimse yok yanında!..*
- *Evet, Allah’tan başka kimsem yok.*
- *Seni böyle yalnız başına bırakamam.* [4, b 44]
- *Qayerga, ey Ummu Salama?*
- *Madinaga ketyapman.*
- *Nega yoningda hech kim yo‘q?*
- *Ha, Allohndan boshqa hech kimim yo‘q.*
- *Seni yolg‘iz qo‘yib yubora olmayman.*[5, b 44]

Umuman olib qaralganda, qahramon jonli nutqi yaxshi tarjima qilingan, lekin “*Hani kimse yok yanında?*” gapini “Nega hech kim yo‘q

yoningda?” deb tarjima qilish maqsadga muvofiq. Yozuvchi bunday gap qurilishi bilan qahramon hayronligi, taajjublanganligini bildirgan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun dialog tarjima jarayonida qahramon shevada gapirsa, uning shevada gapirlanligini bildirish maqsadida gap qurilishini o‘zgartirib uning noodatiyligini bildirish kerak.

– *İşte kocan şu köydedir ey Ümmü Seleme, haydi selametle git, dedi. Devenin yularını eline verdi ve yaya geldiği yüzlerce kilometrelik yolu yine yaya yürüyüp geçmek üzere Mekke’ye yöneldi* [4,43].

– Ey, Umma Salama, ering shu qishloqda, sog‘-salomat yetib ol, – dedi-da yayov bosib o‘tgan to‘rt yuz ellik kilometrlik yo‘lni yana yayov bosib o‘tish uchun Makka tomonga qarab yo‘l oldi [5,44].

Yuqoridagi gapda “*devenin yularını eline verdi*” jumlasini tarjima qilinmasdan ketilgan va “*yüzlerce kilometrelik yolu*” birikmasini “to‘rt yuz ellik kilometrlik yo‘lni” shaklida tarjima qilgan. Aslida yuzlab kilometrlik yo‘lni shaklida tarjima qilinishi kerak bo‘lgan. Yuqoridagidek tarjima qilishni noto‘g‘ri hisoblash xatodir, tarjimon tarjima jarayonida o‘zidan ham qo‘shib tarjima qiladi. Asarning yanada badiyatini chuqurlashtirishi mumkin.

“*Aman dileyene kılıç çekilmez*” maqoli “Omonlik so‘raganni qilich kesmaydi” deb tarjima qilgan. Bu maqolni omonlik so‘raganga qo‘l(qilich) ko‘tarilmaydi, deb tarjima qilinsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Birinchi qismning birinchi bo‘limi nomi *muhtemel itirazlar* deb nomlanadi. Uni tarjimada asosiy etirozlar deb bergan, lekin muhtemel so‘zining ma‘nosi ihtimoliy, kutilgan, taxmin qilingan ma‘nolarini bildiradi. Asosiy etirozlar o‘rniga taxminiy yoki ihtimoliy etirozlar deyilganda maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Tarjimon bu asar tarjimasida mohirona tarjima qilgan deb ayta olamiz, chunki muallif uslubini saqlab qola olgan.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, tarjimon bu asar tarjimasida yaxshi natija ko‘rsatgan. diniy-ma‘rifiy asar bo‘lgani uchun muallif uslubiga xos xususiyatlari kam, lekin shunga qaramay muallif uslubini tarjimada chiqarib bera olgan. Albatta, muallif uslubini to‘laqonli saqlab qolishning iloji yo‘q. muallif uslubi bilan bir qatorda tarjimon uslubi ham mavjud. A.L.Qozonchining uslubini asosiy jihatlari: tarixiy so‘zlardan keng foydalanish, qahramonlar xarakteriga mos bo‘lgan nutqni

shakllantirish, ta'riflashda qo'shma gaplardan foydalanish kabilardir. Ko'pgina tarjimon, ayniqsa, yozuvchi tarjimonlar orasida ko'p uchraydigan holat bu muallif uslubining tarjimada bermaslikdir. Bu asar tarjimasida muallif uslubi saqlangan.

REFERENCES

1. Salomov G'. Tarjima nazaryasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1983.
2. Shukurov N. Uslub va janrlar. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1978.
3. Блок А. О литературе. – Москва, 1931.
4. Kazancı A. Peygamberimize neden inanmadılar?. – İzmir: Işık yayınları, 2006. 296 b.
5. Qozonchi A L. Rasulullohga nega ishonmadilar?. – Toshkent: Munir, 2021. 352 b.
6. Fatxutdinova, I. A. (2021). Tarjimada ekvivalentlikning muloqot maqsadini ifodalash vositalari. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 2), 140-149.
7. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. *Theoretical & Applied Science*, (8), 107-110.
8. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND'S VARDAAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (12), 374-377.
9. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. *History of Translation in India*, 431.
10. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(4).
11. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 534-543.